

Moliyaviy Majburiyatlar Hisobini Takomillashtirish

Narzullayev Nodirbek¹, Mirzaev Behzod²

Anatatsiya: maolqning asosiy maqsadi bo‘lib moliyaviy majburiyatlar hisobining nazariy, metodologik va tashkiliy muammolarini tadqiq etish hamda ushbu muammolarni hal qilishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Bizning fikrimizga ko’ra moliyaviy majburiyatlarga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- Moliyaviy majburiyatlarning mohiyati va ahamiyati, shuningdek ularning hisobini ob’ektlari sifatidagi xususiyatlarini asoslash;
- Moliyaviy majburiyatlar hisobi mazmun va mohiyatini ilmiy asoslab berish;
- Moliyaviy majburiyatlar hisobini takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash;
- Moliyaviy majburiyatlar xarakatini hujjatlashtirish, ularni hisob va hisobotda aks ettirish holatini tekshirish tartiblari va usullarini ko‘rsatib berish.

Kalit so’zlar: moliyaviy majburiyatlar, foiz ko’rinishidagi xarajatlar, qisqa va uzoq muddatli majburiyatlar, to’lanadigan qarzlar, to’lanadigan foizlar.

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayonini jahon miqyosida takomillashtirish, dunyoning yetuk rivojlangan mamlakatlaridagi buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid ilg‘or tajribalarini hamda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni o‘rganish va amaliyatga tadbiq qilishni taqozo etmoqda. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy qilish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlarga qaramasdan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) keng joriy qilishga, xorijiy investorlarni zaruriy axborot muhiti bilan ta’minalashga va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini oshirishga to’sqinlik qiluvchi qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotining taraqqiyoti va rivojida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar majburiyatlari miqdorini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar majburiyatlari ularning moliyaviy holatiga va to‘lov qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli ularning darajasini aniqlash va qaytarish muddatlariga rioya qilish masalalari muhim sanaladi. Davlat sektori aktivlari va majburiyatlarini hisobga olish va boshqarish dunyo bo‘ylab e’tiborni tobora ko‘proq jalb qilmoqda. Bizning turli xil davlat xizmatlarining narxi hatto qo‘snilalarimizga qaraganda yuqoriroq. Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi 2004 yilda milliy, mintaqaviy, mahalliy boshqaruv organlari va tegishli idoralar uchun davlat sektori uchun xalqaro buxgalteriya standartlarini (IPSAS) ishlab chiqqan. Buyuk Britaniyada va boshqa rivojlangan mamlakatlarda bu taskilot moliyaviy hisobot, balans va boshqa hisobotlarni tayyorlaydilar. Dunyo miqyosida davlat aktivlarini ko‘paytirish uchun soliq tushumlarini ko‘paytirish bo‘yicha yig‘imlar mavjud, ammo bizning soliq tushumimiz dunyodagi eng past ko‘rsatkichlardan biridir. Xususiyashtirish va davlatning kamomadini va xo‘jalik sub’ektlarining majburiyatlarini kamaytirish uchun zarar keltiradigan korxonalarni isloh qilish dolzarb muammolardan biridir. Majburiyatlar hisobi va auditining nazariy-metodologik muammolari borasida xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan, yaratilayotgan darslik, monografiya va o‘kuv qo‘llanmalar, shuningdek chop etilayotgan ilmiy maqola va tezislarda majburiyatlar hisobi va auditining nazariy muammolari qisman o‘rganilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan K.B.Urazov majburiyatlarni quyidagicha ta’riflaydi, **Majburiyatlar** – bu korxonaning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qarzlari.²

^{1,2}, Assistant, TDIU Samarqand filiali



MHXSlarida “Majburiyat – bu o‘tgan davrdagi hodisalardan kelib chiqadigan kompaniyaning joriy qarzdorligidir, qaysiki uning uzilishi iqtisodiy nafni o‘zida mujassamlantirgan kompaniya resurslarining chiqib ketishiga olib keladi” deb ta’rif berilgan.³

1-jadval Milliy standartlarda hamda xalqaro standartlarda majburiyatlar turlari

Nº	O‘zbekiston Respublikasida majburiyatlar turlari	Xalqaro standartlarda majburiyatlar turlari
1	Ta’minotchi va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar	Kreditlar bo‘yicha qarzlar
2	Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan schyotlar	Qarz va kreditlash shartnomalari bo‘yicha qarzlar
3	Muddati uzaytirilgan (kechiktirilgan) majburiyatlar	Berilgan va akseptlangan veksellar bo‘yicha qarzlar
4	Olingan bo‘naklar	Joylashtirilgan obligatsiyalar, berilgan kafolatlar va boshqa shartli majburiyatlar bo‘yicha qarzlar
5	Byudjet, sug‘urta va maqsadli davlat fondlariga to‘lovlar	Moliyaviy ijara bo‘yicha qarzdarlik
6	Ta’sischilarga bo‘lgan qarzlar	Tovar, ish va xizmatlar bo‘yicha kafolat majburiyatları
7	Xodimlar bilan ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar	Soliq majburiyatları
8	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlar	
9	Turli xil kreditorlarga qarzlar	

Buxgalteriya hisobining 32-sonli xalqaro standarti “Moliyaviy instrumentlar: taqdi etish” da moliyaviy majburiatlarga quyidagilar kirishi nazarda tutilgan.

Moliyaviy majburiyat – shunday majburiyatki, bunda u:

(a) quyidagilar bo‘yicha shartnomaviy majburiyatdir:⁴

(i) boshqa tadbirkorlik sub’ektiga pul mablag‘i yoki boshqa moliyaviy aktivni yetkazib berish; yoki
(ii) tadbirkorlik sub’ekti uchun potensial noqulay bo‘lgan shartlarda boshqa tadbirkorlik sub’ekti bilan moliyaviy aktivlarni yoki moliyaviy majburiyatlarni ayrboshlash; yoki

(b) tadbirkorlik sub’ektining o‘z ulushli instrumentlari bilan hisob-kitob qilinadigan yoki qilinishi mumkin bo‘lgan shartnoma va u:

(i) shunday noderativdirki, bunda u bo‘yicha tadbirkorlik sub’ektiga o‘z ulushli instrumentlarining o‘zgaruvchan miqdorini qabul qilish majburiyati yuklatiladi yoki yuklatilishi mumkin; yoki

(ii) derivativdir, qaysiki tadbirkorlik sub’ektining o‘z ulushli instrumentlarining qat’iy belgilangan miqdoriga qat’iy belgilangan pul mablag‘lari summasini yoki boshqa moliyaviy aktivni almashishdan tashqari boshqa usulda hisob-kitob qilinadi yoki qilinishi mumkin.

² Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020, 564 bet.

³ http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/17-S_N_Tashnazarov.pdf

⁴ IAS-32



2-jadval Korxona majburiyatları turları va ularning tavsifi

Korxona majburiyatları turları	Korxona majburiyatları turlarining tavsifi
<i>Olingen uzoq va qisqa muddatli qarzlar</i>	Bu, mos ravishda, 1 yildan ko‘p va 1 yilgacha muddatga boshqa yuridik shaxslardan vaqtinchalik moliyaviy yordam sifatida olingen mablag‘larni qaytarish bo‘yicha qarzlar summasi
<i>Olingen uzoq va qisqa muddatli kreditlar</i>	Bu, mos ravishda, 1 yildan ko‘p va 1 yilgacha muddatga banklardan kredit shartnomalari asosida olingen kredit resurslarini qaytarish bo‘yicha qarzlar summasi
<i>Ta’mintonchilarga to’lanadigan schetlar</i>	Bu olingen tovar-moddiy boyliklar, xizmat va ishlar uchun ta’mintonchilarga o’tkazilmay qolangan qarz summasi
<i>Xaridorlardan olingen avanslar</i>	Bu xaridorlardan tovar-moddiy boyliklarni sotib olish, xizmat va ishlar uchun xaridor va buyurtmachilardan oldindan kelib tushgan pullar bo‘yicha qarz summasi
<i>Muddati kechiktirilgan uzoq va qisqa muddatli qarzlar</i>	Bu soliqlar va boshqa to‘lovlar bo‘yicha muddati mos ravishda 1 yildan ko‘p va 1 yilgacha bo‘lgan davrga uzaytirilgan qarz summasi
<i>Byudjet oldidagi qarzlar</i>	Bu byudjet foydasiga hisoblangan, lekinda haligacha o’tkazib berilmagan soliq va to‘lovlar bo‘yicha qarz summasi
<i>Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha qarzlar</i>	Bu ijtimoiy sug‘urtaga hisoblangan, lekinda haligacha o’tkazib berilmagan qarz summasi
<i>Ish xaqi bo‘yicha qarzlar</i>	Bu korxonaning xodimlariga hisoblangan va vaqtincha saqlanayotgan ish haqlarini to’lanmay qolangan qismi
<i>Ta’sischilar oldidagi qarzlar</i>	Bu ta’sischilarga hisoblangan, lekinda to‘lanmagan dividendlar bo‘yicha korxonaning qarzi, shuningdek, ta’sischilar safidan chiqib ketgan shaxslarning ustav kapitalidagi hissasini qaytarilmagan qismi
<i>Boshqa kreditorlar oldidagi qarzlar</i>	Bu turli xizmatlar, foizlar, kamomadlar, da’volar va boshqa to‘lovlar bo‘yicha korxonaning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar olidagi qarzi

21- son BHMSga muvofiq bank kreditlarining hisobi 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» va 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyotlarida, olingen qarzlar esa 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» va 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyotlarida olib boriladi. Ushbu passiv schyotlarning kreditida kreditlar va qarzlarning olinishi, shuningdek, ular bo‘yicha majburiyatlarning qoldig‘i, debetida esa ularning qaytarilishi aks ettiriladi. Bank kreditlari va olingen qarzlar bo‘yicha hisoblangan foizlar va ular bo‘yicha hisob-kitoblar maxsus 6920 «Hisoblangan foizlar» schyotida olib boriladi. Olingen bank kreditlari va qarzlar, ularning qaytarilishi, hisoblangan foizlar buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi.

№	Muomala mazmuni	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi		So‘mma
		D-t	K-t	
1	Uzoq muddatli bank kreditlari pul mablag‘lari tarkibiga qabul qilinadi	5110	7810	
2	Qisqa muddatli bank kreditlari pul mablag‘lari tarkibiga qabul qilinadi	5110	6810	
3	To’lanadigan foizlar hisoblandi	9610	6920	
4	Uzoq muddatli bank kreditlarining joriy qismi hisoblandi	7810	6950	
5	Berilgan veksellar Qisqa muddatli Uzoq muddatli	6010 7010	6020 7020	
6	Berilgan veksellarning to’lov muddati	6020	6840	



	kelganda	7020	7840	
7	O'z vaqtida to'lanmagan soliqlarga peniya-jarimalar hisoblanganda	9430	6410	

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda moliyaviy majburiyatlar- bu pul bilan bog'liq bolgan majburiyatlar hisoblanadi. Buning natijasida majburiyatlarning yopilishi aktivlarning kamayishiga olib keladi.

Majburiyatlarni xususiyatidan kelib chiqib, Tovar bilan bog'liq bo'lган majburiyatlarni va Tovar bilan bog'liq bo'lмаган majburoyatlarni notovar moliyaviy majburiyatlarga bo'lish taklif etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. 2016 yil 13 aprel № O'RQ-404
2. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Auditorlik faoliyati to'g'risida. 2021 yil 25 fevral, № O'RQ-677.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-5853-son farmoni. 2019 yil 23 oktyabr.
4. “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakillantirish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori.
5. IAS 32 “Moliyaviy instrumentlar taqdi etish”
6. K.B.Urazov, M.E.Po'latov “Buxgalteriya hisobi” 2019-yil
7. Urazov K.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr.- T.: «Fan va texnologiya», 2019. – 540 b.
8. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. –Samarkand, 2017;
9. Tuychiev A.J. Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy metodologik muammolari. Dissertatsiya. i.f.d. – Toshkent. 2011.
10. Karimov A., Kurbanbaev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.
11. Muxammedov M. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya. // Samarqand.: “Zarafshon”, 2017.-300 b.; Alikulov A.I. Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2011. -196 b.

